



XALQ DEPUTATLARI QUMQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Qumqo'rg'on tumani, O'zbekiston shoh ko'chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876)46-52-511

2022 - yil 25 - mart

VI-43-39-8-114-K/22

Qumqo'rg'on tuman hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-dekabrda
“Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada
rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4929-sonli qarorining
tumandagi ijrosi, Qumqo'rg'on tumanida aloqa va axborotlashtirish
texnologiyalari yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Qumqo'rg'on
tuman telekommunikatsiya bog'lamasining hisoboti haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-dekabrda
“Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish
chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4929-sonli qarorining tumandagi ijrosi,
Qumqo'rg'on tumanida aloqa va axborotlashtirish texnologiyalari yo'nalishida
amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Qumqo'rg'on tuman telekommunikatsiya
bog'lamasi boshlig'i A.Xudoynazarovning hisobotini atroflicha muhokama qilib,
xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-dekabrda
“Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish
chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4929-sonli qarorining tumandagi ijrosi,
Qumqo'rg'on tumanida aloqa va axborotlashtirish texnologiyalari yo'nalishida
amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Qumqo'rg'on tuman telekommunikatsiya
bog'lamasi boshlig'i A.Xudoynazarovning hisoboti ma'lumot uchun qabul
qilinsin.

2. Tuman telekommunikatsiya bog'lamasi boshlig'i A.Xudoynazarovga:

- tuman aholisi xonadonlarini optik tolali kabellar orqali yuqori tezlikdagi
internet va simli aloqa tarmog'iga ulash ishlarini davom qildirish;

- xorijiy va mahalliy investitsiyalar kiritish orqali aloqa tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-dekabrda "Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4929-sonli qarorining tumandagi ijrosini vaqtida ta'minlash choralarini ko'rish;

- amalga oshirilgan ishlar to'g'risida xalq deputatlari Qumqo'rg'on tumani Kengashiga har chorakda hisobot berish vazifalari yuklatilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi A.Abduraxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



R.B.Gapparov